

“NAVOIY” VA “ANGREN” ERKIN IQTISODIY ZONALARINING XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH IMKONIYATLARI VA ULARDA INVESTITSION LOYIHALARNI TATBIQ QILISHDA MAKKINZI MENEJMENT MODELIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Raximboyev Doniyor Ne'matjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Har bir mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanishida xorijiy investitsiyalarning o'rnini katta bo'ladi. Bunda mamlakatning investitsion muhiti shakllantiriladi. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda turli jozibador ishlar amalga oshiriladi. Masalan, erkin iqtisodiy hududlar tashkil etiladi. Ularning hududi mamlakatning eng qulay logistik markazlariga joylashadi. Ularda turli soliq imtiyozlari investorlarga taqdim etiladi. O'zbekistonda tashkil etilgan “Navoiy” va “Angren” erkin iqtisodiy zonalar ana shunday imkoniyatlarga ega. Ushbu erkin iqtisodiy zonalarda korxonalarini tashkil etishda Makkinzi menejment modelidan samarali foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: “Navoiy” va “Angren” erkin iqtisodiy zonalar, soliq imtiyozlari, investitsion loyiha, Makkinzi menejment modeli.

THE POSSIBILITIES OF ATTRACTING FOREIGN INVESTMENTS OF THE "NAVOY" AND "ANGREN" FREE ECONOMIC ZONES AND THE PROSPECTS OF USING THE MCKINSEY MANAGEMENT MODEL IN THE IMPLEMENTATION OF INVESTMENT PROJECTS

ABSTRACT

Foreign investments play a significant role in the rapid development of the economy of any country. In this, the country's investment environment is formed. Various attractive activities are carried out to attract foreign investments. For example, free economic zones are established. Their territory is located in the most convenient logistic centers of the country. They offer various tax benefits to investors. Free economic zones "Navoi" and "Angren" established in Uzbekistan have such opportunities. The McKinsey management model can be effectively used to organize enterprises in these free economic zones.

Keywords: "Navoi" and "Angren" free economic zones, tax incentives, investment project, McKinsey management model.

KIRISH

O‘zbekistonda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, xususiylashtirish, ishlab chiqarishni takomillashtirish ko‘plab erkin hududlar tashkil etilgan. Ularni tashkil etishda mamlakatimizning ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo‘lgan hududlarida yangi ish o‘rinlarini yaratish va to‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish maqsad qilingan. Iqtisodiyot tarmoqlarida mahsulotlarni ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish hajmini oshirish ustuvor vazifa etib belgilangan.

Xorijiy investorlar uchun mamlakatimizning investitsion muhiti ularga investitsion jozibador maxsus iqtisodiy zonalarining imkoniyatlaridan foydalanib, tadbirkorlik va biznes faoliyatini amalga oshirishga yordam beradi. Bunday zonalar juda katta soliq imtiyozlarini taqdim eta oladi. Ushbu maxsus iqtisodiy zonalar afzallik jihatlari yurtimiz ko‘plab hududlarida mavjud bo‘lmagan biznes muhiti uchun yetarli shart-sharoitlarga ega.

Investorlar biznes jarayonlarini yaxshilash va xorijiy mamlakatlarda investitsiya loyihalari amalga oshirish uchun samarali boshqaruv modellaridan foydalanadilar. Texnologik taraqqiyot va iqtisodiy o‘shishga erishishda kompaniyalar o‘z boshqaruv faoliyatini yangilab borishadi. Mavjud turli modellar va boshqaruv nazariyalarini yaxshi tushunish samarali jamoani boshqarishga yordam beradi. Bu borada Makkinzi modeli dunyoda keng e‘tirof etilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mavzuni tahlil qilishda lex.uz saytida iqtisodiy zonalar to‘g‘risidagi qonunlar haqida ma‘lumot berildi. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-fevraldagi “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi O‘RQ-604-sonli Qonuniga muvofiq Maxsus iqtisodiy zonalarining faoliyati va ularda tadbirkorlik va biznes faoliyatini olib boruvchi ishtirokchi subyektlar manfaatlari, huquq va erkinliklari kafolati ravishda tartibga solinadi.

www.feznaveoi.uz – “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi veb-sayti bo‘lib, unda erkin iqtisodiy zonadagi xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun mavjud bo‘lgan shart-sharoitlar keltirilgan.

<https://sez.gov.uz> – O‘zbekistondagi barcha erkin iqtisodiy zonalar va ularda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun mavjud bo‘lgan shart-sharoitlar haqida ma‘lumotlar berilgan veb-sayt.

Mavzu haqida ma‘lumot berishda yuqorida keltirilgan veb-saytlaridagi ma‘lumotlar o‘rganildi. Mavzuning metodologiyasi mavzu obyektlarini bir-biriga bog‘lash orqali investitsion loyihalarni tatbiq etish bo‘ldi. Bunda “Navoiy” va “Angren” erkin iqtisodiy zonalariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mavjud uchun shart-sharoitlar korxonalarda Makkinzi menejment modelidan foydalanish uchun qulayligi e‘tibor olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Navoiy” va “Angren” erkin iqtisodiy zonalarining xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari

Maxsus iqtisodiy zonalarining faoliyati va ularda tadbirkorlik va biznes faoliyatini olib boruvchi ishtirokchi subyektlar manfaatlari, huquq va erkinliklari kafolati O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-fevraldagi “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi O‘RQ-604-sonli Qonuniga muvofiq ravishda tartibga solinadi.

Erkin iqtisodiy zona — yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirish, zamonaviy raqobatbardosh, import o‘rnini bosuvchi, eksportga yo‘naltirilgan tayyor sanoat mahsulotini ishlab chiqarishni o‘zlashtirishga faol jalb etish, shuningdek ishlab chiqarish, muhandislik-kommunikatsiya, yo‘l-transport, ijtimoiy infratuzilmani va logistika xizmatlarini rivojlantirishni ta‘minlash maqsadlarida tashkil etiladigan hudud¹. Bugungi kunda malakatimizda 21 ta erkin iqtisodiy hudud va 143 ta kichik sanoat zonasi tashkil etilgan². Ulardan “Navoiy” va “Angren” erkin iqtisodiy hududlarining faoliyatini ko‘rib chiqamiz:

“Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi

“Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 2-dekabrda “Navoiy viloyatida erkin iqtisodiy zona tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4059-sonli Farmoniga muvofiq tashkil etilgan³. “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi iqtisodiy faoliyatining asosiy yo‘nalishi zamonaviy va yuqori mahsuldorlikka ega bo‘lgan uskunalar va texnologiyalarni, texnologik liniyalar va modullarni, innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishdir. “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi hududida sanoatning turli tarmoqlarida xom-ashyodan tayyor mahsulotgacha to‘liq ishlab chiqarish sikli bo‘lgan sanoat korxonalarini tashkil etish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi quyidagi sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarishni tashkil etishga mo‘ljallangan⁴:

1. Elektrotexnika mahsulotlari;
2. Telekommunikatsiya uskunalari;
3. Mashinasozlik, asbobsozlik va butlovchi qismlar;
4. Tibbiy mahsulotlar va tibbiyot uskunalari;
5. Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va qadoqlash;
6. Plastik va polimer mahsulotlari;
7. Zamonaviy qurilish materiallari;

¹ <https://lex.uz/docs/-4737511>

² <https://sez.gov.uz/oz>

³ <https://www.lex.uz/docs/-1411630>

⁴ <https://www.feznavoii.uz/ru/menu/vidy-deyatelnosti-na-territorii-sez-navoi>

8. Tayyor to‘qimachilik mahsulotlari;
9. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash;
10. Ekologik toza kimyo va eksportga yo‘naltirilgan boshqa mahsulotlar.

Navoiy viloyati tabiiy resurslarga juda boy. Viloyatdagi tabiiy resurslarni qazib olib, ularni qayta ishlab yuqori qiymatga ega tayyor mahsulotlar mumkin. Xorijiy investorlar butun viloyatga qiziqish bildirishmoqda. Shuni hisobga olib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-maydagi “Navoiy viloyatini innovatsion, yuqori texnologiyalarga asoslangan, eksportga yo‘naltirilgan va import o‘rnini bosadigan ishlab chiqarishlar uchun erkin iqtisodiy zona sifatida belgilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5719-sonli Farmoniga muvofiq butun Navoiy viloyati 2030-yilning 1-yanvarigacha erkin iqtisodiy zona deb e‘lon qilingan⁵. Ushbu farmonda Navoiy viloyatini erkin industrial zona sifatida rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida innovatsion faoliyatni rivojlantirish, to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish, kimyo va qurilish mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha klasterlar tashkil etish, transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalarini rivojlantirish va boshqalar keltirib o‘tilgan.

“Angren” erkin iqtisodiy zonasi

“Angren” erkin iqtisodiy zonasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 13-apreldagi «“Angren” erkin iqtisodiy zonasini barpo etish to‘g‘risida»gi PF-4436-sonli Farmoniga asosan tashkil etilgan⁶.

“Angren” erkin iqtisodiy zonasi 4125 gektar maydonga ega bo‘lib, Toshkent viloyatining Ohangaron va Angren shaharlari orasida, Ohangaron tumanidagi A-373 magistral yo‘li shimoliy qismida joylashgan hamda Bekobod shahrining 15 gektar hududlarini o‘z ichiga oladi. Hozirgi kunda zonada umumiy qiymati 1 milliard 452 million dollarga teng jami 117 ta loyiha joylashtirilgan bo‘lib, 60 ta korxonalar negizida 70 ta loyiha ishga tushirildi. Bu orqali 8160 dan ortiq kishi doimiy ish va daromad manbayiga ega bo‘ldi. 2020-yilning yanvar-oktabr oyi davomida mazkur korxonalarda 3 trillion 279 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, shundan 62,1 million dollarlik mahsulotni eksport qilishga erishildi⁷.

“Angren” erkin iqtisodiy zonasida 2013-2016-yillar mobaynida 16 ta loyiha amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 26-oktabrdagi “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4853-sonli Farmoni bilan investorlar uchun keng ko‘lamli soliq va bojxona imtiyozlarining berilishi xorijlik tadbirkorlarning qiziqishini yanada oshirdi⁸. Natijada 2017-2020-yilda iqtisodiy zonaga 101 ta loyihani

⁵ <https://lex.uz/docs/-4339936>

⁶ <https://lex.uz/docs/-2002053>

⁷ <https://yuz.uz/uz/news/angren-erkin-iqtisodiy-zonasiga-investorlar-qanday-jalb-qilinyapti>

⁸ <https://lex.uz/docs/-3056978>

joylashtirishga erishildi. Loyihalarni amalga oshirish uchun 783,9 million dollarlik investitsiyalar, jumladan, 294,4 million dollar miqdorida to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirildi⁹.

Investitsion loyihalarni tatbiq qilishda Makkinzi menejment modelidan foydalanish istiqbollari

Mamlakatimiz maxsus iqtisodiy zonalarida yaratilgan shart-sharoitlar investorlarni jalb qilish uchun mo‘ljallangan. Ularda investitsion loyihalarni tatbiq qilib, faoliyat yuritmoqchi investorlarning samarali boshqaruv modellaridan foydalanish, korxonalar faoliyati rivojlanishiga yordam beradi. Samarali faoliyat yuritayotgan korxonalar esa mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim o‘ringa ega. Kompaniyalar boshqaruv tizimini belgilashda tashkiliy tuzilish, qadriyatlar va kompaniya faoliyat olib borayotgan xodimlari o‘zgarishi mumkin. Ko‘plab investorlar xorijiy mamlakatlarda investitsion loyihasini tatbiq qilib, korxonalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish, uning boshqaruv samaradorligiga erishishda Makkinzi modelidan foydalanishadi. Tajribali menejerlar kompaniyaning strategiyalarini ishlab chiqishda, birinchi navbatda, Makkinzi modelidan samarali foydalanishga harakat qilishadi.

Makkinzi modeli – bu ishbilarmon tadbirkor va biznesmenlarning samaradorlik va uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishishda kompaniya faoliyatini yaxshilashga xizmat qiladigan modeldir. Ushbu model yettita omildan iborat bo‘lib, ularning har biri samarali menejment faoliyatini olib borishga qaratilgan. Rahbarlarga kompaniya faoliyatida bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan jihatlari tashkilotning umumiy farovonligiga ta‘sir qilishi mumkinligini tushunishga yordam beradi.

Yettita omil ikki toifaga bo‘linadi: qattiq omillar va yumshoq omillar. Quyida ushbu toifalarning har biri va ular bilan bog‘liq omillarning umumiy ko‘rinishi keltirilgan:

Qattiq omillarga rahbariyat tomonidan aniqlash va ta‘sir qilish oson bo‘lgan omillar kiradi. Makkinzi modeli uchta omilni qattiq omillar sifatida tasniflaydi. Bu omillar quyidagicha:

1. **Strategiyani ishlab chiqish va belgilash omili.** Strategiyani ishlab chiqish va belgilash omilida tashkilot bozorda muvaffaqiyatga erishish uchun ishlab chiqadigan reja tuzadi. Unda tashkilot raqobatbardoshligini saqlab qolish uchun qanday aniq qadamlar qo‘yishi kerakligi ko‘rsatiladi.

2. **Tuzilish omili.** Kompaniyaning tuzilishi belgilashda uning korporativ iyerarxiyasi tashkil qilinadi. Kompaniya qanday bo‘limlarga bo‘linishi, har bir bo‘lim va xodimlar vazifalar ega bo‘lishi va rahbarlar o‘z jamoalarining boshqarish usuli kompaniyaning tashkiliy tuzilmasini shakllantiradi.

⁹ <https://yuz.uz/uz/news/angren-erkin-iqtisodiy-zonasiga-investorlar-qanday-jalb-qilinyapti>

3. **Tizim omili.** Tashkilot tizimlari kundalik protseduralar bo‘yicha barcha bo‘limlarda turli vazifalarni bajaradigan xodimlarning ish faoliyatini kompaniya strategiyasida belgilangan maqsadlarga erishishga yo‘naltiriladi. Ish beruvchilar shu asosda tartib-qoidalarni ishlab chiqishadi.

Yumshoq omillarga nomoddiy bo‘lgan omillar kiradi. Kompaniya madaniyati ko‘pincha ushbu sohalarining har biriga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Makkinzi modeli to‘rtta omilni yumshoq omillar sifatida tasniflaydi. Bu omillar quyidagicha:

4. **Umumiy qadriyatlar omili.** Tashkilotning umumiy qadriyatlari - bu jamoa a‘zolari va menejerlarning bir-biri bilan o‘zaro munosabatiga ta‘sir qiluvchi ijtimoiy normalar, e‘tiqodlar va standartlar. Ular qaysi turdagi xatti-harakatlarning maqbulligini belgilaydi va kompaniya madaniyatiga kuchli ta‘sir qiladi.

5. **Ko‘nikmalar omili.** Bu omil jamoa a‘zolarining barcha qobiliyatlari va iste‘dodlarini anglatadi. Ushbu ko‘nikmalar kompaniya o‘z biznes maqsadlariga erisha oladimi yoki yo‘qligini aniqlashga yordam beradi.

6. **Uslub omili.** Tashkilotning boshqaruv uslubi rahbarlarning o‘z jamoasining boshqa a‘zolari bilan qanday munosabatda bo‘lishini boshqaradi. U korporativ madaniyatning namunasini ko‘rsatadi va xodimlarning ishlashiga ta‘sir qiladi.

7. **Xodimlar omili.** Tashkilot xodimlariga kompaniyada ishlaydigan yoki uning boshqaruvida ishlaydigan barcha odamlar kiradi. Ramka o‘rganadigan xodimlarning ba‘zi xususiyatlariga kompaniyada qancha odam ishlashi, ularni nima rag‘batlantirishi va o‘z ishlarini muvaffaqiyatli yakunlash qobiliyati kiradi.

Yetti omilning har birini kuchaytirish orqali tashkilot muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan tizimli yordamga ega bo‘lishini ta‘minlash mumkin. Bu butun jamoa bir xil maqsadlarga ega ekanligiga ishonch hosil qilishga yordam beradi. Umumiy qadriyatlarini o‘rganish va ko‘rib chiqishni boshlashda kompaniya jamoa qabul qilgan ijtimoiy normalar va standartlarni aniqlash harakat qilinadi. Hamkasblar qanday xatti-harakatlarni maqbul deb bilishi va odamlarning bir-birlari bilan munosabatiga qanday ta‘sir qilishini ko‘rib chiqiladi. Keyin jamoaning umumiy qadriyatlari tashkilot tuzilmasi, tizimlari va strategiyasiga mos kelishini aniqlanadi. Agar tashkilotning umumiy qadriyatlari uning tuzilishi, tizimlari va strategiyasiga mos kelmasa, yaxshilash ustida ishlash mumkin bo‘lgan sohalar ro‘yxati tuziladi.

Tuzilmani, tizimlarni va strategiyani tahlil qilish orqali kompaniyaga qanday qiyin omillar ta‘sir qilishini ko‘rib chiqiladi. Ushbu omillarning har biri baholanganida, ularning bir-biriga qanday ta‘sir qilishini va qo‘llab-quvvatlashini ko‘rib chiqiladi. Tashkilotning qiyin omillarini ko‘rib chiqilayotganda quyidagilarga e‘tibor qaratish kerak:

- Tashkilotning ierarxiyasi;
- Jamoalarning bo‘linish tartibi;

- Tashkilotning markazlashgan yoki markazlashmagan qarorlar qabul qilish usullaridan foydalanishi;
- Har bir bo‘limning muhim tadbirlarni tashkil qilish tartibi;
- Jamoa a‘zolari o‘zlarini mos keladigan sheriklar, rahbarlar va hamkasblarni tanlashi;
- Jamoa a‘zolari o‘z ishlarini bajarishlarini ta‘minlash uchun qoida va shart-sharoitlarning mavjudligi;
- Biznes faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydigan asosiy moliyaviy, aloqa, tashkilot va inson resurslari tizimlari
- Maqsadlarga erishish uchun kompaniyaning umumiy strategiyasi;
- Tashkilot raqobatbardoshligi.

Tashkilot tuzilishi, tizimlari va strategiyasi bir-birini yaxshiroq qo‘llab-quvvatlashi mumkin bo‘lgan sohalarni aniqlash uchun yuqoridagi omillar muhim o‘ringa ega. Jamoaning umumiy qadriyatlari va qattiq omillarini tahlil qilinganidan so‘ng, kompaniyaning boshqaruv uslubi va xodimlar malakasi o‘rganiladi. Ushbu omillarning har birini ko‘rib chiqilayotganda, ular oldin aniqlagan qattiq omillarni qo‘llab-quvvatlashiga e‘tibor beriladi. Tashkilotning yumshoq omillarini baholashda quyidagilarga e‘tibor beriladi:

- Jamoada qaysi mahorat kuchliligi;
- Jamoada yetishmayotgan muhim qobiliyatlar;
- Bizning boshqaruv tizimining samaraliligi;
- Rahbariyatning xodimlarni qo‘llab-quvvatlashi;
- Jamoa a‘zolarining bir-biri bilan hamkorlik qilishi yoki o‘zaro raqobat qilishi.

Yuqoridagilar tashkilot boshqaruvining qiyin omillarini qayta ko‘rib chiqishda ham muhim o‘ringa ega. Agar bu omillar bir-birini qo‘llab-quvvatlash o‘rniga raqobatlashayotgandek tuyulsa, jamoada yanada yaxlit ish madaniyatini yaratish uchun qanday qadamlar qo‘yish mumkinligini ko‘rib chiqiladi.

MUHOKAMA

Investitsion loyihalarni tatbiq qilmoqchi bo‘lgan investorlar mamlakatimiz erkin iqtisodiy zonalarida soliq imtiyozlariga ega bo‘ladi. Korxonalar faoliyati uchun texnologik uskuna va ehtiyot qismlari olib kirganda bojxona to‘lovlaridan ozod qilinadi. Soliq imtiyozlari investitsiya qiymatiga qarab 3 yildan 10 yilgacha, bojxona imtiyozlari erkin iqtisodiy zona faoliyati yakunigacha amal qiladi. “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasining ishtirokchisi bo‘lgan korxonalar yer solig‘i, daromad solig‘i, yuridik shaxslar mol-mulk solig‘i, kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lovi, mamlakatimizda ishlab chiqarilmaydigan va loyihalarni amalga oshirish doirasida olib kelinuvchi qurilish materiallari uchun boj to‘lovlaridan ozod etiladi. Lekin bojxona rasmiylashtiruvini uchun to‘lanishi kerak bo‘lgan majburiy yig‘imlar to‘lanishi shart.

“Angren” erkin iqtisodiy zonasiga xitoylik investorlarning qiziqishi yuqori. Xususan, ushbu mamlakatdan kirib kelgan 342 million AQSh dollari miqdoridagi to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiya asosida zonada 28 ta loyiha joylashtirilgan¹⁰. “Angren” va “Navoiy” erkin iqtisodiy zonalarini investorlarga zamonaviy shart-sharoitlarni taqdim eta oladi. Ularda investitsion loyihalarni tatbiq qilish bilan birga korxonalar faoliyatini samarali boshqarish uchun zamonaviy menejment andozalaridan foydalanish mumkin.

Makkinzi modelida korxonadagi vaziyatga qarab, moslashuvchan boshqaruv tizimini ishlab chiqish kerak bo‘ladi. Yetti omilning har birini tez-tez ko‘rib chiqish orqali biznes strategiyasini ham qayta baholash kerak. Bunda o‘zgarishlar orqali samarali ekanligini va qo‘shimcha tuzatishlardan foyda olish mumkinligini aniqlanadi. Ushbu takrorlanuvchi va doimiy yondashuv muvaffaqiyatli va uzoq muddatli tashkilotni yaratishga yordam beradi.

XULOSA

Navoiy viloyatining barcha hududlarida, shu jumladan, 2008-yildan beri mavjud bo‘lgan “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasidagi chet el sarmoyasi ishtirokidagi korxonalarining muassislari ishtirokchilari va ularning oila a‘zolari uchun 2019-yilning 1-iyunidan mamlakat hududida amal qilish muddatini uzaytirish imkoni bo‘lgan 3 yillik “investitsion viza” joriy etilgan¹¹.

“Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi korxonasi yuqori darajali infratuzilmalar bilan ta‘minlangan. “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi bevosita xalqaro aeroport, E-40 avtomagistrali va xalqaro miqiyosdagi temir yo‘l bilan yaqin masofada joylashgan. Bu esa “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasining multimodal transport-logistika tizimini maksimal tarzda samarali qo‘llashga yordam beradi¹². “Angren” va “Navoiy” erkin iqtisodiy zonalarini investorlarga taqdim etilgan qulay shart-sharoitlar korxonalar faoliyati uchun zamonaviy menejment andozalaridan foydalanishga yordam beradi.

Biznes-konsultantlar, menejerlar va tashkilot rahbarlari kompaniya rivojlanishining turli bosqichlarida Makkinzi modelidan foydalanishlari mumkin. Ko‘pincha ular ushbu modeldan muhim o‘zgarishlar sodir bo‘lganidan keyin tashkilotning turli qismlari qanday ishlashini baholash uchun foydalanadilar. Bu birlashish, tashkiliy qayta qurishni, yangi bozorga kirishni yoki ko‘plab yangi jamoa a‘zolarini yollashni o‘z ichiga olishi mumkin. Ba‘zi mutaxassislar, shuningdek, Makkinzi modelini ushbu o‘zgarishlar amalga oshirilgunga qadar amalga oshiradilar, shuning uchun ular yaxshilanishi kerak bo‘lgan sohalarni faol ravishda aniqlashlari va kompaniyaning rivojlanishini kuzatishlari mumkin.

Makkinzi modelidan foydalanishda tashkilotdagi turli bo‘limlar, jamoalar, tizimlar yoki jarayonlar o‘rtasida keskinlik borligini bilib olish mumkin. Bunday

¹⁰ <https://yuz.uz/uz/news/angren-erkin-iqtisodiy-zonasiga-investorlar-qanday-jalb-qilinyapti>

¹¹ <https://www.gazeta.uz/oz/2019/05/15/navoiy/>

¹² <https://uzsm.uz/uz/investorlar-diqqatiga/industrial-zonalari/erkin-iqtisodiy-zona-navoiy/>

holatlarda Makkinzi modeli uzoq muddatli rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydigan ish muhitini yaratish uchun kerakli o‘zgarishlar qilish mumkinligi aniqlashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

O‘zbekiston Respublikasi qonuni

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-fevraldagi “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi O‘RQ-604-sonli Qonuni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 2-dekabrda “Navoiy viloyatida erkin iqtisodiy zona tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4059-sonli Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-maydagi “Navoiy viloyatini innovatsion, yuqori texnologiyalarga asoslangan, eksportga yo‘naltirilgan va import o‘rnini bosadigan ishlab chiqarishlar uchun erkin iqtisodiy zona sifatida belgilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5719-sonli Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 13-apreldagi «“Angren” erkin iqtisodiy zonasini barpo etish to‘g‘risida»gi PF-4436-sonli Farmoni

Veb-saytlar

<https://lex.uz>

<https://yuz.uz>

<https://www.gazeta.uz>

<https://www.feznavei.uz>

<https://sez.gov.uz>

https://en.wikipedia.org/wiki/McKinsey_7S_Framework